

Mavzu: Mustahkamlash



*Bug'doyzor – bug'doy
ekiladigan joy.*

bug'doyzor



1-mashq. O'qing. Ko'chirib yozing. Bug'doydan nimalar tayyorlanadi?

Bug'doy

Bug'doyning afzalligi ko'p: u mo'l hosil beradi hamda undan shirin va mazali mahsulotlar tayyorlanadi. Faqat bir tomoni achinarli: u zararli² hasharotlardan, qattiq sovuqdan va qurg'oqchilikdan qo'rqadi. Bug'doy o'ziga qunt va mehnat bilan qarashlarini xush ko'radi.⁴ Shundagina u bizga rizq ulashadi.



- Matn voqeani so'zlab bermayapti, tashqi ko'rinishni ham tasvirlamayapti, balki bug'doyning ijobiy va salbiy tomonlarini ko'rsatib beryapti. Matn turini aniqlang.



2-mashq. O'qing. Matndan daraxtning tashqi ko'rinishini tasvirlovchi o'xshatishni topib, yozing.

Sayyohlar daraxti

Amerikada, Braziliyada, Kavkazning Qora dengiz sohillarida, cho'llarda sayyohlar daraxti deb nomlanadigan ajoyib daraxtni uchratish mumkin. Bu daraxtning shoxi bo'lmaydi, u yo'g'on tanasidan katta-katta barglar chiqaradi. Barglarining tuzilishi yelpig'ichga o'xshaydi. Bargning tanaga tutashgan joyida chuqurcha bo'lib, bu yerda hamisha suv turadi. Chanqagan sayyohlar ana shu suvdan ichib, yana yo'lda davom etaveradilar.

- Matn turini aniqlang. Fikringizni izohlang.
- Sayyohlar suvni qanday qilib daraxtga zarar yetkazmasdan ichishlari mumkin?



3-mashq. “Soʻz ichidan soʻz top” oʻyini.

INSONPARVARLIK



4-mashq. Sevimli kitoblaringiz haqida mulohaza matni tuzing va yozing.

Men oʻqishni yaxshi koʻraman.⁴ Oʻqish mening lugʻat boyligimni oshiradi, nutqim va tasavvurimni rivojlantiradi. Men ... haqidagi kitoblarni oʻqishni yaxshi koʻraman. Chunki...



5-mashq. Oʻqing. Matnga “Toshbaqa”dan tashqari yana qanday sarlavha qoʻyish mumkin? Oʻzingizga yoqqan sarlavhani qoʻyib, matnni koʻchiring.

Toshbaqa

Iroda koʻm-koʻk maysalar orasida boʻynini choʻzib yotgan toshbaqani koʻrib qoldi. Iroda unga yaqin kelib, tomosha qila boshladi. Toshbaqa qimirlamasdi. Toshbaqa uxlayotgan boʻlsa kerak, deb oʻyladi va uni uygʻotish uchun toshkosasini avaylab siladi. Shu payt toshkosa ustidagi qon izlariga koʻzi tushdi. Toshbaqani tezda uyiga olib keldi. Uning yorilgan toshkosasini doka bilan siqib bogʻlab qoʻydi.

- Endi u yashaydi-a? – soʻradi Iroda dadasidan.
 - Yaxshi parvarish qilsang, tuzalib ketadi, – dedi dadasi.
- Bu soʻzlardan Iroda quvonib ketdi.

Tamilla Qosimova

- Matn mazmuni asosida rejadagi tushirib qoldirilgan qismni toʻldirib yozing.

Reja:

1. **Kirish qismi:** Maysalar orasidagi toshbaqa.
2. **Asosiy qism:**
3. **Xulosa:** Dadasining tasallisi va Irodaning quvonchi.

